



TURKIY MAVLUDLARNING ADABIY-MA'RIFIY AHAMIYATI

Nizomjonova Zarina Nizomjon qizi

Qarshi davlat universiteti, Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik (o'zbek tili), mutaxassisligi 1-kurs magistranti

+998908929911, e-mail: nizomjonovazarina039@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sh. Nuriddinov

Qarshi DU dotsenti, f.f.d. (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15172166>

ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 4th April 2025

Published: 8 th April 2025

KEYWORDS

epik matn, turkiy mavlud, til xususiyatlari, leksik tahlil, badiiy uslub, manba tadqiqi qahramonlik motivlari.

ABSTRACT

Epik matnlar turkiy adabiyotning muhim qismini tashkil etadi. Ushbu maqolada turkiy mavludlarning matniy tadqiqi, til xususiyatlari, badiiy ifoda vositalari va manba tahlili asosida badiiy talqin muammolari o'rganiladi. Tadqiqot doirasida Sulaymon Chalabiy va Xilvatiy asarlarining qo'lyozma hamda bosma tahrirlari solishtiriladi.

Epik matnlar turkiy adabiyotda diniy-didaktik tushunchalarni yetkazishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, mavlud janri diniy-axloqiy mazmuni bilan alohida ajralib turadi. Bu janrda yozilgan asarlar Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning siyratini tasvirlash bilan birga, xalq ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilgan. Turkiy xalqlarda mavlud janri uzoq tarixga ega bo'lib, bu turdagi asarlar nafaqat diniy targ'ibot vositasi, balki o'z davrining ijtimoiy, madaniy va adabiy qarashlarini aks ettiruvchi matnlar sifatida ham o'rganiladi.

Turkolog va adabiyotshunos olimlar mavludlarning epik xususiyatlarini o'rganishgan. Jumladan, Andrey Kononov, Natan Mallayev, Begali Qosimovlar mavlud janrining epik janrlarga yaqinligi haqida mulohaza yuritishgan. Ularning fikricha, mavludlar diniy janr bo'lishiga qaramay, ularda epik janrga xos voqeiy tasvir, dramatism va obrazlarning qahramonlik xarakteri sezilarli darajada yaqqol ko'rinadi.

I. Turkiy mavlud janrining kelib chiqishi va ushbu yo'nalishdagi asarlarning tarkibiy tuzilishi.

Mavlud janri islom dini yoyilishi bilan bog'liq holda shakllangan bo'lib, uning dastlabki namunalari arab-fors adabiyotida paydo bo'lgan. Keyinchalik bu janr turkiy xalqlar orasida ham ommalashib, mahalliy an'ana va urf-odatlariga moslashgan holda rivojlangan. O'rta asrlarda mavlud janri nafaqat diniy, balki epik va didaktik yo'nalishlarga ham ega bo'ldi. Uning rivojlanish bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- Dastlabki bosqich – arab va fors mavludlarining tarjimalari va moslashuvi;
- Rivojlanish bosqichi – mustaqil turkiy mavludlarning yaratilishi, masalan, Sulaymon Chalabiy va Xilvatiy ijodi;
- Takomillashuv bosqichi – mavludlarning badiiy va g'oyaviy jihatdan boyitilishi, adabiy an'ana sifatida mustahkamlanishi.

A.N.Kononov turkiy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri bo'lib, u mavlud janrining epik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha: "Mavludlar Payg'ambar Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyatini

tasvirlash orqali turkiy xalqlarning diniy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutadi” [Kononov A. 1:75]. Kononov mavludlarning epik janrga xos bo‘lgan voqeabandlik, qahramonlik va dramatik tasvirlar kabi xusiyatlarini ta’kidlab, turkiy adabiyotning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Ularni shunday izohlaydi:

1. *Voqeabandlik* – mavludlar Payg‘ambarimiz hayotining muhim bosqichlarini bayon qilish bilan birga, tarixiy voqealar hamda diniy afsonalarni ham yoritadi. Ularda epik syujetga xos bo‘lgan dramatik lahzalar, qahramonlik motivlari uchraydi.

2. *Qahramon obrazi* – mavludlarda Muhammad alayhissalom ideal qahramon sifatida tasvirlanadi. Uning bolalik yillari, odilligi, komilligi hamda mo‘jizalari tasvirlanib, epik qahramon timsoli shakllantiriladi.

3. *Epik til va uslub* – mavludlarning tili ko‘pincha qahramonlik dostonlariga o‘xshash obrazli va baland pardali bo‘ladi. Unda mubolag‘a, tavsif va maqtov vositalari keng qo‘llanadi.

4. *Tuzilish va janr xususiyatlari* – turkiy mavludlar, odatda, nazmiy shaklda bo‘lib, qasida va masnaviy janrlariga yaqin turadi. Bu esa ularning epik dostonlar bilan mushtarak jihatlarini ko‘rsatadi.

Mavlud janri islomiy adabiyotning muhim turlaridan biri bo‘lib, ayniqsa, o‘rta asrlarda mashhur bo‘lgan. Mavlud asarlarining tarkibiy tuzilishi muayyan an‘analarga asoslangan holda shakllangan bo‘lib, ular quyidagi qismlardan iborat bo‘lgan:

1. *Muqaddima*

Mavludlarning muqaddima qismida muallif o‘z asarining yozilish sabablari, Allohga hamd-u sanolar, Payg‘ambar alayhissalomga salovat va duolar keltiradi. Shunigdek, ba‘zan muallif o‘zining kamtarona xizmatini e‘tirof etib, ilohiy madad so‘raydi.

Muqaddimada quyidagi jihatlar ham aks etadi:

- Allohning ulug‘ligi va rahm-shafqati haqida so‘z yuritiladi;
- Qur‘ondan oyatlar va hadislar keltiriladi;
- Payg‘ambar alayhissalomning shaxsiyati va maqomi madh etiladi.

2. *Tug‘ilish va bolalik davri*

- Muhammad alayhissalomning tug‘ilishidan oldin sodir bo‘lgan mo‘jizalar;
- Onasi va otasi haqidagi ma‘lumotlar;
- Tug‘ilish va unga bog‘liq karomatlar;
- Yoshligidagi alohida fazilatlar.

3. *Payg‘ambarlik davri va mo‘jizalari*

Mavludning bu qismida Muhammad alayhissalomning balog‘atga yetishi, unga vahiy kelishi va islom dini yoyilishi tasvirlanadi. Ushbu qism quyidagi voqealarni o‘z ichiga oladi:

- Payg‘ambarlik kelishi va ilk vahiy;
- Quraysh mushriklari tomonidan ko‘rsatilgan qarshilik;
- Hijrat voqeasi va Madinada islom jamiyatining shakllanishi;
- Payg‘ambar alayhissalomning mo‘jizalari va sahobalarga ta‘siri.

Bu qismda Muhammad alayhissalomning xalqqa yetkazgan odil hukmlari, ularning sabr-toqati va odob-axloqi keng yoritiladi.

4. *Vafoti va xotima*

- Payg‘ambar alayhissalomning so‘nggi kunlari;
- U zotning so‘nggi nasihatlarini;
- Vafot etishi va sahobalarning g‘am-g‘ussalari;
- Muallifning shafolat tilashi va duo qilishi.

Taniqli adabiyotshunos olim O.Usmonov ta’kidlaganidek: “Mavlud janri turkiy adabiyotda diniy motivlarni ifoda etishi bilan ajralib turadi va epik janr sifatida xalqning e‘tiqodiy qarashlarini o‘zida mujassamlashtiradi” [Usmonov O. 5:45]

II. *Matniy tadqiqot*

Turkiy adabiyotda mavlud janri diniy-madaniy va badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ushbu janrning eng mashhur namunalari sirasiga Sulaymon Chalabiyning “Vasilatun-najot”,

Imom Ja'far Barzanjiyning "Mavludi Nabiy" va Xilvatiy qalamiga mansub "Mavludi Sharif" asarlari kiradi.

Sulaymon Chalabiy 1346-1351-yillar orasida tug'ilgan va 1422-yilda vafot etgan deb taxmin qilinadi. U masjidida imomlik vazifasini bajarib yurgan vaqtida bir voqeaga guvoh bo'ladi. Bu voqeadan qattiq ta'sirlangan Sulaymon Chalabiy o'zining mashhur asari "Vesiletu'n Necat"ni yozgan. Manbalarda keltirilgan rivoyatlarga ko'ra, Sulaymon Chalabiy Muhammad alayhissalomning boshqa payg'ambarlardan ustunligi yo'qligini iddao qilgan eronlik voizning gaplaridan ta'sirlangan va Muhammad alayhissalomning boshqa payg'ambarlardan ustunligini isbotlash maqsadida "Mavlud" asarini yozgan. [Mustafa Koz, Akif Gumral. 4:3].

Ushbu asar Muhammad alayhissalomning hayoti, mo'jizalari va fazilatlarini madh etishga bag'ishlangan bo'lib, turkiy adabiyotda bu janrning eng mukammal namunalari qatoriga kiradi. "Vasilatun-Najot" asari an'anaviy mavlud janriga xos tarzda, muqaddima, tug'ilish qissasi, Payg'ambarlik va islomning yoyilishi, Me'roj voqeasi, vafot va xotima qismlaridan iborat.

Aruzing foilotun-foilotun-foilon ruknida yozilgan ushbu asar o'n bir nusxaning solishtirilishi natijasida olingan ma'lumotga ko'ra, 768 baytdan iborat bo'lib, 16 bobni o'z ichiga oladi. "Vasilatun najot" oddiy turk tilida yozilgan. Asarda g'oyalar, ma'lumot va tuyg'ular badiiy uslubda bayon etilgan. Muallifning iboralari uning diniy ishtiyoqiga qarab rivojlanib, boyib borgan. Diniy tushunchalar, majburiyatlar aniq bayon etilgan, islom tasavvufining diniy qoidalar bilan o'zaro uyg'un bo'lgan jihatlari o'rinli ishlatilgan, turkiy adabiyotga kirib kelgan so'fiylik timsollaridan muvaffaqiyatli foydalanilgani ko'rinadi. Bundan tashqari, asarda takrir, tanosub, tashbih, tamsil kabi adabiy san'atlardan mohirona foydalanilgan, mavzularning kerakli joyida oyat va hadislar qo'llanilgan. Masalan:

"Besmele ile bashlanmayan her ish sonuchsuz kalir"

Hadis-i Sherif [Celebi Suleyman. 6:36]

Mazmuni: *Bismillo bilan boshlanmagan har ish natijasiz bo'ladi.*

Ushbu asar keyinchalik turkiy, fors va arab adabiyotida ko'plab mavlud namunalari uchun ilhom manbai bo'ldi. U hozir ham ko'plab musulmon jamiyatlarida Payg'ambar alayhissalomning tavallud ayyomida tilovat qilinadigan eng mashhur mavludlardan biri hisoblanadi.

Xilvatiy qalamiga mansub bo'lgan tasavvufiy-diniy ruhdagi "Mavludi Sharif" asari ham ushbu janrda yozilgan muhim manba hisoblanadi. Mulla Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiy 1858-yilda Namangan viloyatining Uychi tumani Jiydakapa qishlog'ida tug'ilgan. Namangandagi Azizxo'ja madrasasida mudarris sifatida faoliyat yuritgan. U o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan zullisonayn shoir hisoblanadi. Xilvatiydan bizgacha ikki devon yetib kelgan. Xilvatiyning hayotlik chog'idayoq "Mavludi Sharif" risolasi nashr etilgan va xalq orasida mashhur bo'lgan. Ushbu asarning tuzilishi quyidagicha: muqaddima (hamd), na't, mavlud o'qish xosiyatlari, uchta hikoya, o'n to'qqizta voqeaning bayoni va xotimadan iborat. Asar tili g'oyat sodda bo'lib, masnaviy usulida bitilgan. Muallif baytlarda ta'sirchanlikni oshirish maqsadida turli she'riy san'atlardan foydalangan. Masalan:

Dunyadin ketdi ikkav iymon bila,
Gul kabikim chehrai xandon bila.

Ushbu parcha [Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. 3:45] asarda keltirilgan hikoyatlardan birining so'nggi qismidan olingan bo'lib, muallif ayol bilan erining yuzlarini go'zal gulga tashbeh qiladi.

Yuqoridagi ikki asar ham Muhammad alayhissalomning hayot yo'llarini ifodalasa-da, voqealar farqli tasvir vositalari bilan ifodalangan. Ayniqsa, Me'roj voqeasi har ikki asarda katta ahamiyatga ega bo'lib, turli badiiy va diniy yondashuvlarda aks etgan. Xilvatiy asarida Me'roj hodisasi Payg'ambarimiz alayhissalomning ilohiy martabasi va insoniyatga ko'rsatgan nurli yo'li sifatida talqin qilinadi:

Bir kecha bu ishq bila bo'ldim zindon,
Me'roj sari yo'l ochildi biri dam

Ko'nglum ichra nur zuhur ayladi
Har tarafdin faryod etub chorladi.

Bu bayt [Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. 3:67]da Payg'mbarimiz alayhissalomning Me'rojga chiqishlari oldidan kechki holati tasvirlangan. Yuragidagi ilohiy nur uni yuqoriga, Alloh huzuriga chorlaydi.

Bu voqea Chalabiy asarida quyidagicha ifodalangan:

Bir Burak kim sur'ati berk eylemish

Naz'i zulmetden nicesin aylamish

Arsha vardukda dideler kim bilesin,

Ol Habib Allah'i go'rdu bilesin.

Yuqoridagi bayt [Sulaymon Chalabiy. 6:89] orqali Muhammad alayhissalom yetti osmon orqali Alloh huzuriga chiqqani tasvirlanadi. Bu sahnada uning ilohiy martabasi va Alloh bilan uchrashishi madh etilgan. Bu misollar har ikki ijodkorning Me'roj tasviriga bo'lgan yondashuvini ko'rsatadi: Xilvatiy ko'proq ichki ruhiy holatni, Sulaymon Chalabiy esa hodisalarni tavsilotli tasvirlaydi. Xilvatiy asarida Me'roj yo'lida uchraydigan manzaralar tasavvufiy ramzlar orqali tasvirlanadi. Bundan tashqari, Payg'ambar (alayhissalomning osmonga ko'tarilishi oldidan Jabroil alayhissalom bilan uchrashuvi va sirli sayohati haqida voqealar ifodalanadi. Shuning bilan birga, Muhammad alayhissalomning Alloh huzuriga ko'tarilishi va unga berilgan ilohiy sovg'alar madh etiladi.

Sulaymon Chalabiy asarida esa Me'roj faqat Payg'ambarimizning ilohiy yuksalishi emas, balki ummat uchun rahmat eshigi ochilgan hodisa sifatida ifodalangan. Muhammad alayhissalom Me'rojda barcha payg'ambarlar bilan uchrashishi va Islom ummati uchun alohida duolar qilish sahnalari bayon qilinadi.

Har ikkala asarda Me'roj tasviri o'ziga xos jihatlarga ega bo'lsa-da, umumiy nuqtayi nazardan Xilvatiy asari ko'proq tasavvufiy yondashuv bilan yozilgan bo'lib, ruhiy poklanish va ilohiy nurni qabul qilish mavzusi ustuvor. Sulaymon Chalabiyning mavludida esa voqealar dramatik va tafsilotlarga boy bo'lib, unda tarixiy hodisalar kengroq tasvirlanadi. Ularning har biri o'z davrida keng ommalashgan va bugungi kunda ham diniy va badiiy jihatdan ahamiyatini saqlab qolgan.

Mavlud janridagi asarlarning tuzilishi muayyan an'analarga asoslangan bo'lib, ular diniy, tarbiyaviy va axloqiy jihatdan katta ahamiyat kasb etgan. Mavludlar nafaqat Muhammad alayhissalomning hayotini madh etish, balki ularning ibratli hayotini eslatish, ularga bo'lgan muhabbat va hurmatni oshirish uchun yozilgan. Shuningdek, turkiy mavludlar o'ziga xos lingvistik va epik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi hamda milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Келгусида bu asarlarning qo'lyozma nusxalarini tadqiq qilish, tarjimalarini taqqoslash va qiyosiy tahlillar olib borish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Kononov A. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: Fan, 1973.
2. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1973.
3. Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. Mavludi Sharif. Toshkent: Qamar media, 2021.
4. Mustafa Koz, Akif Gümral, Süleyman Çelebi, Dokuz Eylül Üniversitesi Buca Eğitim Fakültesi Öğrenci Ödevleri Sayfası– 11.Nisan, 2009
5. Usmonov O. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Muharrir, 2021.
6. Süleyman Çelebi Vesiletü'n Necat. - Istanbul: Turk Dil Kurumu, 2022.